

ISSN 2415-8771

ИНТЕРНАУКА
Internaika.org

**ССХVII МЕЖДУНАРОДНАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ**



32(227)

**МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ:
ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ**



«МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ»

*Сборник статей по материалам ССХVII международной
научно-практической конференции*

№ 32 (227)
Сентябрь 2021 г.

Издается с декабря 2015 г.

Москва
2021

Technical and mathematical science	144
Section 2. Information technology	144
THE IMPACT OF INFORMATION TECHNOLOGIES ON THE ECONOMY	144
Ekaterina Vladimirovna Rudyaga	
Зиңгиздаңылар таңбасы	149
Ресемдер таңбасы	149
Раңғылым 1. Ұмарат мешіттердегі мемлекеттік мәдениеттік мұнай	149
Сергелілген мемлекеттік мәдениеттік мұнай	149
Мемлекеттік мәдениеттік мұнай	149
Ақындардың мемлекеттік мәдениеттік мұнайы	149
Озбек тилинде конференция ма’рузалари	158
Gumanitar	158
1- bo'lim Jismoniy madaniyat	158
YOSH AVLODNI TO'G'RI O'SICHI VA RIVOJLANISHIDA JISMONIY TARBIYA GIGIYENASINING O'RNI	158
Baymuradov Radjab Sayfitdinovich	
Asadullayev Anvar Narzullayevich	
Baxshullayeva Maloxat Baxtiyor qizi	

O'ZBEK TILIDAGI MAQOLALAR

GUMANITAR

1- BO'LIM

JISMONIY MADANIYAT

**YOSH AVLODNI TO'G'RI O'SICHI VA RIVOJLANISHIDA JISMONIY
TARBIYA GIGIYENASINING O'RNI**

Baymurodov Radjab Sayfiddinovich

*Buxoro davlat universiteti,
Jismoniy madaniyat fakulteti, katta óqituvchisi,
Ózbekiston, Buxoro*

Asadullayev Anvar Narzullayevich

*Buxoro davlat universiteti,
Ekologiya va geografiya fakulteti, katta óqituvchisi,
Ózbekiston, Buxoro*

Baxshullayeva Maloxat Baxtiyor qizi

*Buxoro davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi,
Ózbekiston, Buxoro*

ANNOTASIYA

Muntazam jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish salomatlikni yaxshilash va mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Inson salomatligini yaxshilashda jismoniy faoliik bilan bir qatorda gigiyena qoidalariiga rioya qilish tavsiya etiladi. Har bir yosh avlodga jismoniy tarbiya bilan birlashtirishda gigiyenani ham bir me'yorda o'rgatib bormoq lozim. Ushbu maqolada jismoniy tarbiyada gigiyenaning o'mi haqida yanada chuqurroq ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: gigiyena, jismoniy tarbiya va sport, badanitarbiya, sog'lom turmush tarzi, ommaviy sport, zararli odalar, jismoniy tayyorgarlik, chiniqish.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi vaqtida deyarli dunyoning barcha mamlakatlariga yetib borgan va insonlar uchun katta xavf solib turgan Covid-19 virusi tufayli organizimning, shuningdek immunitet tizimining qanchalik darajada ekanligini, ya'ni kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini ko'rib turibmiz. Barchamiz bundan jiddiy xulosa chiqargan holda, zararli odatlardan voz kechib, ommaviy sport bilan doimiy shug'ullanish, to'g'ri ovqatlanish kabi tamoyillarga rioya qilish, xususan tarkibida tuz, qand va yog' miqdori ko'p bo'lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini me'yordan ortiqcha iste'mol qilmaslikni, bir so'z bilan aytganda, sog'lom turmush tarzini kundalik hayotimizga aylantirishimiz zarur ekanligini bugungi davrning o'zi taqozo etmoqda. Shuningdek, salomatlikni saqlash va uni mustahkamlashda gigiyenaga hamda jismoniy faoliyka alohida e'tibor qaratish kundalik turmush tarzining eng dolzarb masalasi sanaladi.

Tadqiqot maqsadi. Jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntaзам shug'ullanish hamda sog'lom turmush tarzi bo'yicha hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali har bir fuqaroda kasallikka qarshi kuchli immun tizimi paydo bo'lishini ta'minlash, zararli odatlardan voz kechish, to'g'ri ovqatlanish tamoyillariga amal qilish, tiklash va reabilitatsiya ishlari hamda ommaviy jismoniy faoliyak tadbirlarini tizimli va samarali tashkil qilish, bu borada tegishli infratuzilma va boshqa zarur shartsharoitlarni yaratish maqsad qilingan. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport tizimida gigiyenaning ham muhim o'mi borligini his qilishimiz va unga amal qilishimiz zarur.

Jismoniy tarbiya va sport – insonning har tomonlama rivojlanishi va tarbiyalanishi, sog'likni mustahkamlanishi, ish qobiliyatini oshishi, umurni uzayishining muhim omilidir.

Gigiyena – organizmni tashqi muhit ta'siriga o'zaro bog'liqligini o'rgatadigan fan bo'lib, tibbiyotning barcha bo'limlari, shuningdek pedagogika, psixologiya va boshqa shu singari fanlar bilan chambarchas bog'liqidir. "Gigiyena" yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "foydali" degan ma'noni anglatadi. Gigiyenaning quyidagi bo'limlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz:

1. Ummumiy gigiyena – insonga tashqi muhitning ta'sirini, ya'ni suv, havo, tuproq va shu kabilalar misol bo'ladi.

2. Ijtimoiy gigiyena – abolining yashash sharoitini o'rganadi.
3. Kommunal gigiyena – turar joylar, yotoqxona, mehmonxonalar sharoitlarini o'rganadi.
4. Kasb gigiyenasi – quruvchi, paxtakor, rassom, o'qinuvchi, shifokor, muhandis va boshqa mutaxasisliklarda faoliyat ko'rsatadigan odamlarning mehnat faoliyati xususiyatlarini, sog'ligini o'ranganadi.
5. Bolalar va o'smirlar gigiyenasi – bolalarning salomatligini, ularning o'sish xususiyatlarini hamda rivojlanishini o'rghanadi.
5. Ovqatlanish gigienasi – oqilona va tartibli ovqatlanish, shuningdek yoshga, jinsga, mehnat turiga (aqliy va jismoniylari), mavsumga qarab ovqatlanish va organizmning salomatligini saqlashda ovqatlanishning ahamiyatini o'rganadi.
5. Jismoniylar tarbiya va sport gigiyenasi – jismoniylar tarbiyadagi shaxsiy, umumiy bo'lgan gigiyenalarini hamda sportchilarning barkamol rivojlanishini ta'minlaydi va xizmat qiladi.

Jismoniylar tarbiya gigiyenasi - gigiyena fanining bo'limlaridan biridir. Jismoniylar tarbiya va sport mashg'ulotlarida odam salomatligini saqlash va mustahkamlash maqsadida samaraliroq foydalanish uchun mashg'ulotlar vositalarini, metodlarini hamda shart-sharoitlarini ilmiy jihatdan asoslangan holda normaga solib turish jismoniylar tarbiya gigiyenasining mazmunini tashkil etadi. Jismoniylar tarbiya gigiyenasi mashg'ulotlarning samaraliroq metodlarini va eng qulay shart-sharoitlarini asoslab berish uchun jismoniylar mashqlar odam sog'lig'iga qanday ta'sir ko'rsatishini va ular sog'lig'ini mustahkamlashga qay darajada xizmat qilishini o'rganadi.

Jismoniylar tarbiya gigiyenasining ahamiyati fan texnika rivojlanish davriga kelib ancha ortdi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida odamlar sog'lig'ini va hayotini saqlashda sanitariya gigiyenaning omaviy tarzda saqlanadigan yuqumli kasalliklarning oldini olishga qaratilgan tadbirlarini (vodoprovodlar qurish, kanalizatsiya o'rnatish, shaharlarni toza tutish va boshqalar) asosiy rol o'yagan bo'lsa, hozirgi vaqtida abolining kasallanishi va o'llimi to'g'risida yurak-tomir kasalliklari, modda almashinuvni, assab tizimi kasalliklarini kelib chiqishida yetakchi o'rinn tutadi. Bunday kasalliklarning paydo bo'lishida kasallik xafining asosiy omili sifatida

gipodinamiya katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ham gipodinamiyaning oldini olish maqsadida jismoniy mashqlarning qo'llanilishi gigiyenada yetakchi shamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiya gigiyenasi odamning jismoniy holatiga xos bo'lgan mezonular bo'yicha uning salomatligiga oid model parametrlarini me'yorashtirib turish (jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik darajasi, chiniqqanlik) hamda jismoniy yuklamalarni me'yorga solib turish (tuzilishi, hajm, intensivlik) kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Jismoniy tarbiya gigiyenasi gipodinamiyaning oldini olish bilan birga, sihs-salomatlikning model darajasiga erishish va uni saqlab turish uchun umga optimal darajada mashq ta'siri ko'rsatilishini ta'min etadigan (chiniqtiruvchi tadbirlar, mashq va musobaqa yuklamalari, dam olish, ovqatlanish, katta sportda tiklanish) tadbirlarni muayan tartibga solishi zarur. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport mashq'ulotlari shart-sharoitlarini (iqlim va mikroiqlim, sport inshoatlari va jihozlari, kiyim-kechaklar va boshqalar) salomatlikka qulay ta'sir ko'rsatishiga yordam beradigan tarzda normaga keltirib olishi kerak.

Salomatlikni saqlash va mustahkamlashda atrof muhitni ozoda saqlash, ratsional tarzda ovqatlanish, faol ravishda optimal harakatlar qilish, assab, psixik-hayajonlanish kabi haddan oshib ketadigan hayajonli holatlarni oldini olish singari tadbirlar bilan bir qatorda, jismoniy tarbiya ham eng muhim va istiqbolli omillardan biriga aylanib bormoqda. Aholining sog'lig'ini mustahkamlashda, shaxsni uyg'um kamol toptirishda, yoshlarni mehnatga, Vatan himoyasiga tayyorlashda jismoniy tarbiya hamda sportning shamiyati o'sib bormoqda. Faoliyatni shunday yo'lga qo'yish kerakki, har bir kishi yoshligidan o'zining jismoniy barkamol bo'lishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi, tibbiyot, xususan gigiyena sohasidagi bilimlarni egallab borishi hamda sog'lom turmush kechirishni hayotining asosiy mezonlaridan biri sifatida o'rganib borishi lozim.

Shu bilan birga, yuksak darajadagi yutuqlarga erishgan sport (katta sport) salomatlik uchun muayan darajada xavf tug'diradigan (haddan tashqari zo'riqish va jarohatlar) anchagina intensiv va keng hajmli yuklamalar bilan bog'liq bo'lib, ular puxta shifokorlik-pedagogik nazorati o'matilishimi hamda mashqlarning gigiyenik jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlashni talab qiladi. Jismoniy tarbiya va sport gigiyenasi jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan va tashqi muhit bilan

muloqotda bo'ladigan tanani o'rganadi. Buning natijasida gigiyena me'yorlari ishlab chiqiladi, bularning hammasi jismoniy tarbiya va sportchilarning sihat-salomatligini yaxshilashga, ish qobiliyatini oshirishga qaratilgan.

Shunga asoslangan holda jismoniy tarbiya va sport gigiyenasi oldiga quyidagi asosiy vazifa qo'yiladi:

1. Jismoniy tarbiya va sportni sportchilar tanasiga ta'sir etadigan har-xil omillarni o'rganish.
2. Jismoniy tarbiya va sport mashqlarini optimal sharoitda bajarish uchun ilmiy ravishda asoslangan gigiyena me'yorlarini ishlab chiqish.
3. Jismoniy tarbiya va sportda sportchi sihat-salomatligini yaxshilash, garmonik rivojlanish, chiniqish, ish qobiliyati va sport ko'rsatkichlarini ko'tarish uchun foydalanan qonun va qoidalarini ishlab chiqish.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun har-xil gigiyenik uslublardan foydalamiladi. Hozirgi vaqtida ko'proq, kompleks gigiyena usullari qo'llanilmoqda. I.P. Pavlov jismoniy harakatning inson salomatlikka ta'sirini, insonni tashqi muhit bilan chambarchas bog'langan deb tavsiflaydi. Jismoniy mashg'ulot u yoki bu muskullar guruhiga ta'sir qilmay, balki butun organizmga ta'sirini ko'rsatadi. Modda almashimuvu yaxshilanadi, to'qimalar oziq moddalarni yaxshi o'zlashtiradi, parchalangan moddalarni organizmdan tezroq chiqarib tashlaydi. Yurak chiniqadi va yanada chidamli bo'ladi. Shu sababli jismoniy harakat bilan shug'ullanuvchilar tetik, ruhan yengil, quvvatga to'lgan, kayfiyati baland, dili ravshan bo'ladi. Bolalik davridan boshlangan chiniqish mashg'ulotlari ayniqsa foydalidir. Respublikada "Jismoniy tarbiyava sport to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi, "Sog'lom avlod uchun" ordenining ta'sis etilishi sportni takomillashtirishda ilk poydevor bo'ldi. Hozirgi paytda eng muhim jarayon milliy an'analarimiz va O'zbekiston jug'rofiya – iqlim xususiyatlarini o'z ichiga olgan mazmunan boy sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni amalga oshirishdir. Agarda imuntazam ravishda o'tkazilib turilsa, kutilgan natijalarni beradi. O'zaro o'rganish yoki bilim olishni tashkil etishda jismoniy tarbiya mashg'ulotlar foydali va zarur degan e'tiqodga aylanadi, e'tiqod esa barqaror axloqiy me'yorlarga aylanadi. Shuning uchun Abu Ali ibn Sino "Kishi salomaligida

yugurmasa, kasalligida albatta yuguradi” yoki “Mashqlar bilan mo’tadil shug’ullanigan kishi hech qachon dori – darmon ichishiga hojat qolmaydi” – deb bejiz aytmagan. “Men qoldirib ketayotgan zo’r tabiblardan biri - tozalik, ikkinchisi – parhez, uchinchisi – badantarbiya, qolganlari –mijoz bilan kayfiyatdir”.-deydi. Jismoniy tarbiya sog’liqni mustahkamlashga, yuqori ish qobiliyatiga erishishga, hayotiy muhim harakat o’quv va malakalarni egallashga yo’llangan. U odamni umumli mehnat qilishga tayyorlashda muhim shamiyatga ega. Jismoniy xususiyatlardan tashqari, bu vaqtda qimmatli ruhiy xususiyatlar ham rivojlanadi. Turli xil jismoniy mashqlar, harakatli o’yinlar, sport jismoniy tarbiysining vositalari hisoblanadi. Ular bilan uy sharoitida, maktabda, bolalar sport muktablarida shug’ullanadilar. Turli yoshda jismoniy tarbiya turli xil vazifalarga ega.

Jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug’ullanish hamda sog’lom turmush tarzi bo'yicha hayotiy ko'nikmalarni shakillantirish orgali har bir fuqaroda kasallikkha qarshi kuchli immun tizimi paydo bo'llishini ta'minlash, zararli odatlardan voz kechish, to'g'ri ovqatlanish tamoyillariga amal qilish, tiklash va reabilitatsiya ishlari hamda ommaviy jismoniy faoliyik tadbirlarini tizimli va samarali tashkil qilish, bu borada tegishli infratuzilma va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsad qilingan. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika organlari tizimida ommaviy sportni, sog'lom turmush tarzini va sog'lom ovqatlanishni yanada rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha qator ishlar bajarilayapti. Xususan, 2020 yil 13 oktabr kuni Davlat statistika qo'mitasida "Ommaviy sportni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish chora-tadbirlari dasturi" ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Turli ommaviy sport tadbirlari va nnusobaqlarini o'tkazishdan maqsad – salomathlikni mustahkamlash, jismoniy rivojlanishni yaxshilash, umumiy va professional samaradorlikni oshirish, dam olish vaqtini foydali o'tkazishdir. Vatanimiz sha'nini munosib himoya qila oladigan sog'lom, baquvvat, irodali, chiniqqan, mahoratlari yoshlarni tarbiyalash haqida g'amxo'lik qilishmoqda. Jismoniy tarbiya jarayonida sog'lomashtirishgina emas, balki ta'lim va tarbiya vazifalari ham amalga oshirilmoqda. Bu biz yoshlar hamda xalqimiz uchun qaraladigan e'tiborning yaqqol namunasidir. Xalq tinch, osoyishta, sog'lom bo'sagina davlat yuksaladi, o'sadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 30 oktyabrdagi PF- 6099 - sonli farmoni.
2. Asadullaev A.N. "Jamiyatda sog'lom turmush tarzini tashkil qilishda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining o'rni" Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar jurnalı, 3-maxsus son. Toshkent-2020. 31-36 betlar.
3. Asadullaev A.N., Ochilova N.R., Jabborova O.G. "Healthy lifestyle" Academicia an international multidisciplinary research journal (ISSN:2249-7137, yanvar 2021, 1835-1841).
4. "Jismoniy tarbiya gigiyenasi" ushubiy o'quv qo'llanmasi (Satipov G'M., Ametov Z) asosida.
5. "Umumiy gigiyena va ekologiya" M.A. Azizovning o'quv qo'llanmasi Toshkent – 2016.
6. www.library.uz
7. www.ziyonet.uz
8. <http://moodle.samdu.uz>